

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING TERRORIZM BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATI

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 316-guruh kursanti
G'aybullayev Boburjon Erkin o'g'li

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarini aniqlash va oldini olishga doir chora-tadbirlarni qo'llash faoliyati, shuningdek, profilaktika inspektorining terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish tushunchasi, bugungi kundagi holati va profilaktika inspektorlarining mazkur faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud muammo va kamchiliklar, hamda ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritib berilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что деятельность инспектора по предупреждению и применению мер по предотвращению террористических актов, которые могут быть совершены на закрепленной за ним административной территории, а также концепция инспектора по профилактике преступлений, связанных с с терроризмом, освещена сегодняшняя ситуация и особенности осуществления инспекторами профилактики этой деятельности, существующие проблемы и недостатки, а также ряд предложений по устранению этих проблем и недостатков.

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murossasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi.

Bugun aniq aytish mumkinki, agar diniy ekstremizm va aqidaparastlik shiorlari halqaro terrorning g'oyaviy niqobi bo'lsa, narkobiznes va narkotrafik hech shubxasiz, xalqaro terrorning moliyaviy tayanchidir. Shu bilan birga ayrim ekstremistik ko'rinishdagi tashqi kuchlarning ta'siri davlatimizning tinchligi va fuqarolarimizning xavfsizligiga dinni niqob qilib xavf solish tahdidi ham sezila boshladi. Chunki xalqimizning dinga ishtiyoqi katta bo'lib natijada ushbu g'arazli kuchlar din orqali yoshlarimizning ongini begona mafkuralar bilan zaharlashga hamda davlatimizning istiqloli va taraqqiyotiga rahna sola boshladilar.

Shu o'rinda biz mavzuni yoritishdan oldin terrorizm, terrorchi, diniy ekstremizm, diniy fundamentalizm kabi tushunchalarning mazmun mohiyati va farqli jihatlarini tushunishimiz lozim bo'lib hisoblanadi. Terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob'yektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir

etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoy qilmishlar; terrorchi - terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tgan har qanday shaxs

Diniy ekstremizm - diniy fikrlar yoki ayrim dindorlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun qoidalarga zid bo'lgan g'oyalarni targ'ib qilish va shunday g'oyalarga mos kelmaydigan faoliyat olib borishni anglatadi. Ya'ni islomning qadimgi g'oyalarni va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniysiyosiy harakat

Diniy fundamentalizm - aqidaparastlik, aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo'jizalarning muqaddas kitoblaridagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga muhosasiz, so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda butun dunyo muammolariga aylangan diniy ekstremizm, jamiyat xavfsizligiga, barqarorlikka, olib borilayotgan islohotlarga, fuqarolar hayoti sog'lig'i va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga hech qachon bugungidek katta xavf tug'dirmagan. Jamiyatda tinchlikka, xavfsizlikka, boshqaruv tartibiga, jamoat xavfsizligiga, qarshi jinoyatlarning sabablar majmuasida diniy ekstremizm xalqalardan biri bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston qadimdan dinlar o'lkasi bo'lib, zardushtiylik, xristianlik, yahudiylik, islom va boshqa o'nga yaqin dinlar mavjud bo'lgan. Mazkur dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlarning orasida hech qanday ziddiyatlar kelib chiqmagan.

Biroq bugungi kunda islom dinini o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun qurol sifatida harakat qiluvchi jinoy guruhlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishiga olib kelmoqda.

Darhaqiqat biz bugungi kunda nihoyatda murakkab zamonda yashamoqdamiz. XXI asrda fan texnikaning tez su'ratlarda jadal rivojlanayotganini diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi kabi jirkanch jinoyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ularning tobora ortib borishiga sabab bo'lmoqda, ammo bugungi kunda jamiyatdagi tinchlik va osoyishtalikka rahna soladigan turli ko'rinishdagi xurujlarni o'z vaqtida aniqlash va uning oldini olish choralarini ko'rishimiz talab etiladi. Profilaktika inspektorlari hududida sidir etiladigan terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish uchun, targ'ib etilishiga imkon yaratuvchi omillarni to'laqonli ravishda bartaraf etishi lozim:

Quyidagilar terrorizm va diniy eksterimistik g'oyalarning targ'ib etilishiga imkon yaratuvchi omillar bo'lib hisoblanadi:

- aholi ayrim qatlamlarining huquqiy ongi va madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi;

- ota yoki onaning giyohvandlik moddalari, spirtli ichimliklar iste'mol qilishi oqibatida farzand tarbiyasiga yaxshi e'tibor qaratilmasligi;

- profilaktika inspektorlari tomonidan Diniy ekstremistik oqimlarga kirishga moyil shaxslar bilan yetarli darajada profilaktik choralar olib borilmasligi;

-muqim yashash joyidan uzoq muddatga ketgan shaxslarning hayoti bilan bilan huquqni muxofaza qiluvchi organlarning qiziqmasligi;

-jinoiy jazoni ijro etish joylaridan ozod etilgan shaxslarning o'z vaqtida ish bilan ta'minlanmasligi;

-aholi ayrim qatlamlarining iqtisodiy nochorligi, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik holatlari va boshqalar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diniy ekstremizm va uning bilan bog'liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ushbu jinoyatlar natijasida ijtimoiy hayotning turli jabhalaridagi: iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, moliyaviy, boshvaruv, shu jumladan huquqni muxofaza qilish va boshqa sohalardagi munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazishda;

- bunday toifadagi jinoiy faoliyatning uyushganligi, alohida tayyorgarlik asosida amalga oshirilishi hamda bir vaqtning o'zida boshqa ko'pgina jinoyatlarning sodir etilishida;

- noqonuniy faoliyat yurgizayotgan ko'plab missioner diniy tashkilotlarning faoliyatida va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning oqibatlarida, ya'ni tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga, davlatning xavfsizligiga, suverenitetiga, huquqiy daxlsizligi va iqtisodiyotiga, insonlarning huquq va erkinliklariga tajovuz qilishga qaratilganligida;

- diniy ekstremizmning muhosasizlikka asoslanganligi millatlar o'rtasida mojarolarni, diniy, milliy, kamsitishlarni vujudga

keltirishi, barqaror hayotni izdan chiqarishda;

- jamiyatda barqarorlikni izdan chiqarishga, jamiyat a'zolariga keltirayotgan jismoniy, moddiy, ma'naviy, ruhiy zarar bilan insonlarda ishonchsizlik, g'ulg'ula uyg'otishda, mustahkam fikrga ega bo'lmagan shaxslarni jinoiy xatti harakatlarga chorlashda unga qarshi kurashish uchun katta harajatlar sarf qilinishida;

Ilmiy o'rganishimiz natijasida O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq holatlarga bir necha marotaba duch kelgan. Ushbu yo'nalishda xavfxatar, tahdid va tahlilalar saqlanib qolayotganini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda ekstremizm va terrorizm hamda ularni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha holatning retrospektiv va qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyati, asosan, millatchilik (milliy), ijtimoiy, diniy va siyosiy g'oyalar ostida amalga oshirilmoqda.

Ichki ishlar organlarining terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish va takomillashtirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklar doirasidagi kibernetik jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha kadrlarning bilim saviyasi yetarli daraja emasligi;

- Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir qilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish borasida profilaktika inspektorlari tomonidan e'tiborsizlik, sustkashlik va hokimiyat harakatsizligi huquqbuzarligiga yo'l qo'yilmoqda;

- Ichki ishlar organlarining terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish yuzasidan hamkorlikning tizimli asosda yo'lga qo'yilmaganligi;

- Huda terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshiruvchi xizmat va bo'linmalar xodimlari uchun aniq yo'naltirilgan o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmaganligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish va takomillashtirishda quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin:

- Terrorizm va ekstremizm huquqbuzarliklar doirasidagi kibernetik jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha chet el va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan trening mashg'ulotlarning o'tkazilish;

- Terrorizm va ekstremizm huquqbuzarligini sodir qilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni o'rnatishda panja ostidan qaramaslik kerak, sababi 2005 yil may oyidagi Andijon voqealarini misol qilib olsak, bu kabi xatoliklarni qayta takrorlamaslik, ushbu toifadagi shaxslar bilan doimiy ravishda profilaktik suhbatlar olib borish, ularga MFY raisi, mahalla faollari hamda profilaktika inspektori tomonidan, ushbu toifadagi shaxslarga xaj safarida bo'lib qaydgan "Xoji ota" va "Xoji onalar" dan biriktirishi;

- Ichki ishlar organlarining terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish bo'yicha Ichki ishlar organlari bilan jamoat tashkilotlari, xususan, diniy tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish va qo'shma qarorlarni ishlab chiqishi.